

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TAHLIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK- QURILISH INSTITUTI

Muhandislik fakul'teti

Texnologik mashinalar va jixozlar kafedrası

Detallarni galvanik qoplash usuli bilan tiklash texnologiyasi
mavzusidagi diplom loyihasi ishiga

TUSHUNTIRUV YoZUVI

11-TMJ-14 guruhi talabasi

Yigitaliev SHoyad

Rahbar:

dots.SH.Xalimov

Namangan-2018 yil

Mundarija.

KIRISH

I. UMUMIY QISM

- 1.1 Detallarni galvanik usul bilan tiklashda fizik-kimyoviy jarayonlarning nazariy asoslari.
- 1.2 Detallar tiklash usullari
- 1.3 Galvanik usul bilan detallarni tiklashda elektrolizning ahamiyati.
- 1.4 Mavzuni asoslash

II. Asosiy qism

- 2.1 Detallarni tiklash uchun xom ashyo materiallari va ularga quyiladigan talablar
- 2.2 Detallarni galvanik qoplash usul bilan tiklash
- 2.3 Detallarni galvanik qoplash usulida tiklashda ishlatiladigan jixozlar turlari va asosiy jixoz tavsifi
- 2.4 Ishlab chiqarish nazorati

III. TEXNOLOGIK QISM

- 3.1 Asosiy jixoz hisobi
- 3.2 Issiqlik qurilmasining issiqlik texnik hisobi

IV. IQTISODIY QISM

V. XAYOT FAOLIYAT XAVSIZLIGI

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

1.KIRISH

Dolzarlighi: Galvanik qoplamalarni yaratishda asosan qotishmlardan foydalanilgan xolda mashinalar va apparatlar qurilish konstruksiyalari bosh sestemalari va tuzilishini to'g'ri loyixalashni o'z ichiga oladi. Loyixalash esa o'z navbatida mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Galvanik qoplamalarni aralashtirishda progressiv texnikani ta'minlovchi tajribadan foydalanish konstruksiyalarni qo'llash katta ahamiyatga ega. Mustaqil O'zbekiston– ochiq erkin bozor munosabatlari yo'lidan, adolatli jamiyat qurish, bosqichma bosqich kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan bormoqda.

Mustaqillik biz uchun iqtisodiy ijtimoiy yangilanish jarayonlarini va ishlab chiqarishni takomillashtirish rivojlantirishga davlatimiz tomonidan katta etibor berilmoqda. O'tgan yillarni sarxisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni takitlash kerakki global jahon iqtisodiyotida hali ham saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror suratlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholini turmush darajasini izchil yuksaltirishi taminlandi dunyo bozoridagi o'z pazitsiyasini mustahkamlab oldi. Makro iqtisodiy barqarorlikgi va iqtisodiyotning mustahkamligi taminlandi. Eksport hajmi sezilarli ravishda o'sdi eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sarfi taminlanib bormoqda. Buning natijasida xom ashyo bo'lingan tayyor tavarlarning ulishi 70% dan ziyotni tashkil qilmoqda. Tashqi savdo 1 milliard 120 million dollardan oshdi. O'tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorda ichki xorijiy investitsiyalar jalb etildi, yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011-yilga nisbatan 14% ga o'sdi. Jami investitsiyalarning 22% dan yoki 2-milliard 500 million dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. Jumladan kimyo sanoatini o'rta va kichik biznesni Respublikamizda rivojlantirishga oid davlat tomonidan qonun va qarorlar qabul qilingan. Texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlanayotgan korxonalarda xaridorgir, zamon talablariga mos va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish xajmi ortib, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik korxonalarning ro'li kattadir. Kichik korxonalar istimol bozorining o'zgarishiga tezlik bilan moslashadi ular yangi texnika va texnologiyalarni tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy eta oladi. Qo'shma korxonalar tashkil qilish respublikada o'tkazilayotgan tub islohatlarning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib u mamlakatning iqtisodiyotini mustahkamlashga halqaro obro'sini oshirishga ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini tashkil qilishga xizmat qiladi va respublikamizda korxonalarning jahon bozorlariga chiqishiga imkon beradi. So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan olib borlayotgan iqtisodiy siyosat bozor islohatlarini chuqurlashtirishga xususiylashtirishga va tadbirkorlikni kengaytirishga, milliy valyutani mustahkamlashga qaratilgan. Chet el investitsiyalari kirib kelishiga imkoniyatlarning yaratilishi ishlab chiqarishning taraqqiy etishiga turtki bo'ldi. Sanoatning rivojlangan tarmoqlari rangli metallurgiya to'qimachilik, yoqilg'i, kimyo, oziq-

ovqat, qurilish, mashinasozlik, avtomobilsozlik, samalyotsozlik, tola va tabiiy gaz, kimyo va neft kimyosi mahsulotlari, meva va sabzovotlar, qorako'l terilari eksport qilinadi.

Loyixaning maqsadi: diplom loyixasida galvanik qoplamalarni qotishmalar bilan aralashtirish texnologik jarayonlarda kimyoviy unsurlar bilan aralashtirish tufayli qotishmalar yuzaga keladi.

Fan va texnikaning rivojlanish elektrokimyo sohalarining yanada kengayishiga olib kelmoqda. Elektrokimyoviy ishlab chiqarish va uning texnologiyasi o'z ichiga suvli va suvsiz eritmalar, suyuqlanmalar elektrolizi yordamida metallarni birikmalardan ajratib olish, turli xil kimyoviy mahsulotlar (xlor va vodorod) organik va noorganik modalarni elektrokimyoviy usulda sintez qilish, metall jihozlarni metal qoplamalar bilan qoplashni o'z ichiga oladi. Karroziya tufayli asosiy zarar faqat ko'p miqdordagi metall yo'qotilishi bo'lib qolmasdan uskuna va konstruksiyalari ishdan chiqishi ya'ni xususiyatlari, plastikligi, elastikligi, issiqlik va tok o'tkazuvchanligi va hokozo. Karroziya oqibatida ham ko'pchilik yo'qotishlariga karroziyaga qarshi kurashda ketadigan sarmoyalar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifati saqlanishi, uskunalarni ishdan chiqishi, ishlab chiqarishdagi avariya va hokozolarni tashkil qiladi. Mamlakatimizda bugungi kunda antikorrozion qoplamalarga bo'lgan talab asosan import hisobiga qoplanyapti. Shuning uchun korroziyaga qarshi import o'rnini bosuvchi, mahalliy xom-ashyodan tayorlangan fizik-kimyaviy ko'rsatkichlari chet-elndan kolishmaydigan qoplamal yaratish.

2. UMUMIY QISM

1.1 DETALLARNI GALVANIK USUL BILAN TIKLASHDA FIZIK-KIMYOVIY JARAYONLARNING NAZARIY ASOSLARI

Elektroliz deb, elektrolitning suyuqlanmasi yoki eritmasidan elektr toki o'tganda boradigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga aytiladi. Elektrolitlar eritma yoki suyuqlanma holatida tok o'tkazadilar. Shu sababli elektroliz suyuqlanmada va eritmada borishi mumkin. Ikkinchi tur o'tkazgichlardan doimiy tok o'tkazilganda modda parchalandi. Elektrodlarda oksidlanish-qaytarilish mahsulotlari hosil bo'ladi. Musbat elektrodda oksidlanish, manfiy elektrodda-qaytarish jarayoni sodir bo'ladi. Moddaning doimiy tok ta'sirida parchalanish hodisasi **elektroliz** deyiladi.

Elektroliz hodisasi birinchi marta Faradey tomonidan o'rganiladi va elektrokimyoning fundamental ikkita qonunini kashf qildi. U tomonidan qullanilgan ayrim atamalar: **elektroliz**, **elektrolizyor** (elektroliz jarayoni bajariladigan idish), **elektrolit**, **anod**, **katod**, **anion** (manfiy zaryadlangan), **kation** (musbat zaryadlangan ion) hozirgacha qo'llanib kelinmoqda. Ruh xlorid tuzi eritmasi misolida elektroliz jarayoni mohiyatini tushuntiramiz. Bu tuz suvda quyidagi sxema bo'yicha ionlarga ajraladi.




Tok manba anoddan elektron olib katodga yo'naltiradi. Misning musbat zaryadlangan ionlari manfiy zaryadlangan katodga yo'nalib zaryadsizlanadi.



Shunday qilib, katodda ruh qaytariladi. (Zn^{++} ioniga elektronlar birikadi), elektrodda mis metali holida ajraladi.

Xlorning manfiy zaryadlangan ionlari musbat zaryadlangan anod tomon harakatlanadi va o'zining zaryadini unga beradi, neytral atomga aylanadi.



Xlor anodda gaz pufakchalari hosil qilib ajraladi. Shunday qilib anodda xlor ionlari oksidlanadi (elektronlarini yo'qotadi). Bunda oxirgi natija ZnCl_2 tuzining parchalanishi bilan yakunlanadi.




eritmada katodda anodda.

Elektroliz jarayonida yana suv ham parchalanadi.

Biz bilamizki, suv oz bo'lsa ham ionlarga ajraladi.




Vodorod ionlari katodda qaytarildi.



Gidroksil ionlari anodda oksidlanadi.



Bunda oxirgi natija suv parchalanib



Shunday qilib ruh xloridning suvli eritmasi elektrolizida anodda xlor bilan birgalikda kislorod ajraladi. Katodda esa (ruhdan tashqari) vodorod ajraladi. Bu jarayonlarning hammasi erimaydigan platinadan yasalgan anodda olib boriladi.

1.2 DETALLAR TIKLASH USULLARI

Sanoatda detallarni tikash vai puhtaligini oshirish uchun metallar bilan qo'lashning bir necha usulidan foydalaniladi.

1.Issiq usul. Bu usul korroziyalanishi kerak bulgan metall buyumlar suyultirilgan korroziyabardosh metallga botiriladi. Bu usulda korroziyabardosh metall sifatida suyuqlanish temperaturasi metall buyumni suyuqlanish temperaturasidan birmuncha past bulgan metallar, ya'ni rux, kalay,kurgoshin va boshqa metallar ishlatiladi.

Suyuqlantirilgan korroziyabardosh metallga botirish usulining afzalligi uning ancha oddiyligida bulib, qoplam puxta chikadi; kamchiligi: qoplam kalinligi bir tekis bulmaydi va qo'lash uchun ku' metall sarflanadi.

2. Gal'vanik usul Gal'vanik qoplam 2 turga: anod qoplam va katod qoplam turlariga bulinadi. Metall buyum ayni muxitda potentsiali uzinikidan past metall bilan qo'lansa, u anod qoplamli, potentsiali uzinikidan katta metall bilan qo'lansa, katod qoplamli deb ataladi. Anod qoplam xosil qilinsa maksadga muvofik bo'ladi (rux, xrom, alyuminiy). Hozirgi vaqtda galvanik usul manfiy metall qoplamlar xosil qilishning asosiy usuli bo'lib, bunda ancha tekis va puxta qatlam xosil bo'ladi, hamda bu usulda metall kam sarflanadi.

3.Korroziyabardosh metall purkash . Bu usulning mohiyati shundan iboratki, korroziyadan saqlanishi lozim bo'lgan buyum sirtiga Suyuqlantirilgan korroziyabardosh metall katta bosim ostida purkaladi. Suyuqlantirilgan metallni purkash uchun metallizator yoki „SHoo' 'istoleti'' deb ataladigan apparatdan foydalaniladi. purkalanadigan metall simi (alyuminiy, rux, kadmiy, kalay, bronza, kurgoshin, mis va x.k.) metallizatorida atsetilen alangasida, elektr yoyida yoki 'lazma yoyida Suyuqlantiriladi va buyum sirtiga sikilgan xavo vositasida purkalanadi. Natijada buyum sirtida yaxlit qoplam xosil buladi. Bu usul katta buyumlar sirtini qo'lashining eng kulay yulidir. Keyingi vaqtlarda metallarni o'ta siyraklashgan bosimda buglatishdan keng

foydalanilmokda. Buglangan metall zarrachalari qo'lanadigan metall sirtiga tushib uni qo'laydi va korroziyabardosh katlam xosil kiladi.

4 Plakirlash usuli. Bu usulning mohiyati metall listlar sirtiga korroziyabardosh metall quyib yoki korroziyabardosh metall kavati quyilib 'rokatlashdan iborat. plakirlash natijasida asosiy metall bilan korroziyabardosh metall bilan iborat kuchli qavat xosil bo'ladi. Bu kuchli qavat bimetall deb ataladi.

5. Diffuziyalash (tsementatsiya, termik diffuziyalash) usuli. Bu usul shunga asoslanganki, qo'lanishi kerak bulgan buyumni sirti qoplovchi metall atomlari bilan to'yintiriladi va so'ng yuqori temperatura ta'sirida buyum sirtiga xosil bo'lgan atomlar diffuziyalantiriladi. Buning uchun qo'lovchi metall kukuni bilan unga tushirilgan buyumga yukori tem'peraturada ishlov beriladi, bunda xarorat qo'lovchi metallning Suyuqlanish tem'erasigasiga yakin bulishi kerak.

Mana shu atomar atom buyum sirtiga adsorbtsiyalanadi va so'ng sirtning ichki qavatlariga diffuziyalanadi. SHu yo'l bilan metall sirtida xrom, alyuminiy, titan va boshqa metallarning atomlari bilan tuyingan qavatni xosil kilish mumkin.

1.3 GALVANIK USUL BILAN DETALLARNI TIKLASHDA ELEKTROLIZNING AHAMIYATI.

1. Elektrolizdan foydalanib, ko'pchilik metallar (Na, K, Ca, Al, Ag, Cu, Au, Ni) olinadi. Boshqa usullar bilan olingan metallar yuqori tozalikda (99,99%) olish uchun elektroliz usuli bilan elektrorfinatsiya qilinadi. Bu asosan, "eruvchan anod" usuli bilan amalga oshiriladi.

2. Cho'yan, po'lat va boshqa qotishma hamda metallarning sirti korroziyaga chidamli metallar bilan qoplanadi. Masalan: ruh, nikel, kumush va oltin bilan qoplanadi. Bu jarayonlar galvanostegiya va galvanoplastika deb ataladi.


3. Turli qiyin yasaladigan detallar, siluetlar, nishonlarning qoliplari ganj, plastmassa, grafitlardan yasilib, ularga manfiy zaryadli tok berib elektrolit suyuqlanmasi eritmasiga tushirib qo'yiladi. Ma'lum vaqtdan so'ng qolip sirtiga metall ajralib chiqishi tufayli ayni shakldagi detal olinadi.

4. Elektroliz usul bilan Cl_2 , F_2 , O_2 , H_2 kabi metallmaslar ham olinadi, kimyo sanoatining bu moddalarga bo'lgan ehtiyojining ma'lum qismi shu bilan ta'minlanadi.

Suyuqlanmada boradigan elektroliz natijasida anodda shu modda tarkibiga kirgan anion oksidlanadi, katodda esa shu modda tarkibidagi kation qaytariladi. Masalan, NaCl tuzi eritmasi:

$$\text{NaCl} \rightarrow \text{Na}^+ + \text{Cl}^-$$

Elektrolizida Na^+ ioni katodda qaytariladi:



Cl^- anioni anodda oksidlanadi: $2\text{Cl}^- - 2e \rightarrow \text{Cl}_2^0$.

Umumiy holda:

$2\text{NaCl} \rightarrow 2\text{Na} + \text{Cl}_2 \uparrow$ reaksiyasi boradi.

1.4 МАВЗУНИ АСОСЛАШ

Деталлар эксплуатация жараёнида ҳар хил ташқи таъсирларга учрайди. Натижада лойиҳалаш ва тайёрлаш жараёнида киритилган ишончлилик, бузилмасдан ишлаш, чидамлилик, таъмирбоплилик ва сақланувчанлик кўрсаткичлари пасайиб боради. Бунга деталларида турли носозликлар пайдо бўлиши ва уларнинг ейилиши сабаб бўлади. Деталларнинг техник ҳолати, бинобарин, уларнинг ишончлилигини бошқариш ишлаш қобилиятининг сифат белгиларини тўлиқ тиклаш ҳамда деталларнинг ҳолат параметрларини муайян қийматларгача тиклаш бўйича таъмирлаш, техник хизмат кўрсатиш ишларини мақсадга йўналтирилган ҳолда ўтказишдан иборат.

Металл конструкция деталларини коррозиядан сақлаш муаммоси бутун жаҳон бўйлаб доимий равишдаги долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Кўп йиллик маълумотларга кўра, ривожланган мамлакатларда 3,0-3,5 % ялпи даромаднинг йўқотилиши фақатгина коррозия ҳисобига тўғри келиб, йилига 10-15% металл йўқотилишига олиб келмоқда.

Шу билан бирга, ҳозирги вақтда металларни коррозиядан ҳимояловчи ва техник ювиш воситаларига бўлган Ўзбекистон Республикаси талаби ушбу турдаги маҳсулотларни чет мамлакатлардан валюта эвазига импорт қилиш ҳисобидан қондирилмоқда.

Юқоридаги фикрларни инобатга олиб технологик машиналарнинг ишчи деталларинини, сақлаш, ва йейилган деталларни қайта тиклаш долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

2. ASOSIY QISM

2.1 DETALLARNI TIKLASH UCHUN XOM ASHYO MATERIALLARI VA ULARGA QUYILADIGAN TALABLAR

Temr toza holatda galvanik qoplamalar sifatida yemirilgan po'lat detallarni ish faoliyatini qayta tiklashda keng qo'llaniladi. U asosan zanglamaydigan po'lat markalarini olishda ligirlovchi element sifatida ko'plab ishlatiladi. Texnik temirning

Sementit - eritmada uglerod miqdori 6,7% gacha bo'lganda hosil bo'ladi. eritma sovishi jarayonida undagi sementit parchalanib ferrit va grafitga sementit juda qattiq va mo'rt.

Ferrit – alfa temirdagi uglerodning qattiq eritmasi. Uning mustahkamligi va qattiqligi kichik ,qayishqoqligi yoqori.

Perlit – tarkibida 0.8% uglerod bo'lgan evtektoid. U ferrit va sementitning mayda kiristallari arlashmalaridan iborat.

Austenint – gamma – temirdagi uglerodning qattiq eritmasidir. U qayishqoq, kimyoviy chidamli va magnetsiz.

Ledeburit – tarkibida 4.3% uglerod bo'lgan evtektid. U austenite bilan sementit eritmasi holatida boshlang'ich kristallarining aralashmasidan hosil bo'ladi. Harorat 723^0 c ga pasayganda, ledeburit tarkibi asosan sementit va perlitdan tashkil topadi. Kabi mexanik mustahkam turlari mavjud bu elementlar bilan qattiq eritmalarni hosil qiladi. Ko'p qavatli

temir qoplama olish uchun bir necha elektrolitlardan biriktiriladi. Bunday qoplamalarni olish temir sarfini kamaytiradi.

Bunda yaxshi birikishni ta'minlash uchun asosiy metall yuzasi yaxshilab tozalanishi kerak. Mexanik ishlov berishda turlicha ishlar olib boriladi. Mexanik tayyorlov olib borish quidagilardan borat. Silliqlash, yaltiratish, galtovka, kraslash va qum oqimi bilan qayta ishlash. Mexanik tayyorlash maqsadida notekisliklarni, qirilgan joylarni kavaklarni yo'qotish yuzani yaltiratish. Mexanik va elektrokimyoviy tozalashdan maqsad yog' va moylardan, oksid zanglari yo'qotish va metal strukturasi aniqlash va dastlabki tozalikga erishish.


Mexanik ishlov berish	Qumqog'oz bilan tozalash /turlari. N = 1 yoki N = 2 lik qum qog'oz N = 1/0 N = 1 yoki N = 2/0 qum qog'oz N = 4/0 yoki N = 5/0 qum qog'oz
-----------------------	--

Temir galvannik qoplamalar po'lat detallarni qayta tiklashda keng qo'llaniladi.



Temir – nisbatan arzon metall xisoblanib, bir qancha foydali xossalarga ega.

Tabiatda uchrashi. Temir tabiatda asosan Fe_2O_3 - gematit, Fe_3O_4 - magnetit, $\text{HFeO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O}$ - limonit, FeCO_3 - siderit, FeS_2 -pirit minerallari holida uchraydi. Kobalt CuCoS_4 - korrolit, Co_3O_4 linneit, CoAsS kobaltin minerallari holida, nikel esa $(\text{Fe}, \text{Ni})_9\text{S}_8$ - pentlandit, NiAs - nikelin, $\text{NiSi}_4\text{O}_{10}(\text{OH})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ -garnierit minerallari tarkibida uchraydi.

Olinishi. Toza holdagi temir, uning karbonil birikmalarini termik parchalab yoki tuzlari eritmalarini elektroliz qilib olinadi:



Kobalt va nikel oksidlariga cho'g'atilgan ko'mir ta'sir ettirish yoki ularning xlorid va sulfat tuzlarini elektroliz qilish yo'li bilan sof holda ajratib olinishi mumkin:



Bundan tashqari, bu elementlar gidroksidlarining ammiakli eritmalariga yuqori bosimda vodorod ta'sir ettirilgnd ham bu metallar erkin holatda ajratib chiqadi.

Xossalari. Toza holdagi temir-kumush kulrang tusli yaltiroq metall,- Fe va - Fe modifikasiyaga ega. Temir 910°S gacha hajmiy markazlashgan kristall panjara tuzilishiga undan yuqori temperaturada esa yoqlari markazlashgn kristall panjara tuzilishiga ega. Toza

holda temir nam havoda zang hosil qilib oksidlanadi, galogenlar bilan birikib galogenidlar hosil qiladi. Temir konuentrlangan HNO_3 va H_2SO_4 kilotalarda passivlanadi. Qizdirilganda S, P, C, Si, As, NH_3 lar bilan reaksiyaga kirishadi.

Ishlatilishi. Temir, kobalt, nikel va ularning birikmalari metallurgiyada, o'tga va issiqlikka chidamli qotishmalar olishda, raketalarining gaz turbinalarini tayyorlashda, atom texnikasi, bo'yoqchilik, medicina, qishloq xo'jaligi, keramika, shisha va cement sanoatida va organik moddalar sintezida qo'llaniladi

Shunga qaramay sanoatda yedirilib ketgan mashina detallarini va konstruksion qurilmalarni qayta tiklashda temir qoplamalardan keng ko'lamda foydalaniladi. Keltirilgan avzallik va kamchiliklarini xisobga olganda temirlashellash quyidagi hollarda ishlatiladi:

a) yedirilgan po'lat detallarni qayta tiklashda temir qoplamalar ishlatiladi.

Qoplamalarning qalinligi GOST 9.305-84 ga muvofiq olib boriladi. O'rtacha ekspluatatsion sharoitlar uchun nikel qoplamalar qalinligi 18 mkmni tashkil etadi.

2.2 DETALLARNI GALVANIK QOPLASH USUL BILAN TIKLASH.

Ushbu loyihada avtomatik tizimdan foydalanish ko'zda tutilgan.

Avtomatik tizim bir qator qilib o'rnatilgan vannalardan iborat bo'lib, vannalar orasiga bort so'ruvchilari va "kozirok" lar o'rnatilgan. Vannalar bo'ylamasi bo'yicha detallar solingan barabanlarni bir vannadan ikkinchisiga olib o'tuvchi avtooperatorlar o'rnatilgan. Har bir avtooperator 7-8 vannaga xizmat qiladi.

Avtooperatorlar belgilangan programma bo'yicha texnologik jarayonga asosan ishlaydi.

Barabanli elektrolizyor avtooperator olishi uchun tsapfali ramalardan iborat. Ramaga quyidagilar maxkamlangan: olib yuradigan jag'lar(nometall yoki korroziya bardosh qoplamali metall), olti burchakli teshikli obichaykalar o'rnatiladigan ftorplastli podshipnik bilan, elektrolizyor yuritmasi; katodli tok o'tkazgich; elektrdvigatelni saqllovchi avtomat ; 36 V kuchlanishli uch fazali tokni elektrodvigatelga uzatuvchi kontakt qurilmasi, ximoya kojuxi. Doimiy tok katodli tok o'tkazgichga elektrolizyor tsapfalariga plastina va vtulkalar orqali beriladi.

Avtooperatorlarning xarakatli belgilangan programmalar orqali avtomatik tarzda boshqariladi.

Detallarni temirlash quyidagi texnologik tizimi bo'yicha olib boriladi. 1. Mayda buyumlarni keltirish. 2. Barabanga yuklash. 3. Yog'sizlantirish. 4. Faollashtirish. 5. Yuvish. 6. Qoplama bilan qoplash. 7. Quritish. 8. Saralash. 9. Qadoqlash. 10. Ombor.

1. Mexanik ishlov berish.

Qumqog'oz bilan tozalash /turlari.

$N = 1$ yoki $N = 2$ lik qum qog'oz

$N = 1/0$ $N = 1$ yoki $N = 2/0$ qum qog'oz

$N = 4/0$ yoki $N = 5/0$ qum qog'oz.

2. Elektrokimyoviy yog'sizlantirish.

Elektrokimyoviy yog'sizlantirish katodli va anodli bo'ladi. Katodli yog'sizlantirish tez boradi. Anodli yog'sizlantirish nisbatan sekin boradi.

Ushbu ishda oldin katodli yog'sizlantirish, keyin anodli yog'sizlantirish olib boriladi.

Elektrolit tarkibi:

NaOH – 20 mg/l;

Na₃PO₄ – 30 mg/l;

Na₂SiO₃ – 30 mg/l;

Sintanol DS-10 – 2 mg/l;

Yog'sizlantirish 60 – 70 °S temperaturada olib boriladi. 8 minut davomida katodli yog'sizlantirish $i_k - 2 - 10 \text{ A/dm}^2$ da olib boriladi. 2 minut davomida katodli yog'sizlantirish $i_a - 2 - 10 \text{ A/dm}^2$ olib boriladi.

3. Faollashtirish.

Bu operatsiya detal yuzasidagi oksidli yupqa plenkanini yo'qotish uchun olib boriladi. Bu jarayon yog'sizlantirish va qoplamalarni qoplash oralig'ida olib boriladi. Faollashtirish uchun aralashma H₂SO₄ - 250 ml/l ni saqlaydi.

4. Yuvish.

Yuvishdan maqsad – faqatgina buyum yuzasidan dastlabki operatsiyalardan qolgan eritmalarni yuvish emas, balki oqava suvlarga tushishini oldini oladi.

Detallarning yuvishni 2 smenada olib boriladi: bir bosqichli va ko'p bosqichli ko'p bosqichli yuvish to'g'ri oqimli va qarama-qarshi oqimli bo'ladi. (kaskadli 2- va 3- bosqichli).

Har bir yuvish sxemasi qo'shimcha tutish vannasi bilan ta'minlangan bo'ladi.

Galvanik ishlab chiqarishda yuvishning 3 xili mavjud: sovuq, issiq (temperatura 40 – 50 °S), qaynoq (temperatura 70 – 90 °S).

5. Qoplamalarni biriktirish.

Temir biriktirish uchun oddiy sulfatli elektrolitdan foydalaniladi.

FeSO₄*7H₂O – 350 ÷ 300 g/l.

NaCl – 10 ÷ 15 g/l.

H₃BO₃ – 30 ÷ 40 g/l.

1,4-butindiol – 1,0 ÷ 1,5 g/l.

Formaldegid – 0,01 ÷ 0,05 g/l.

Xloramin B – 2,0 ÷ 2,5 g/l.

OS-20 – 2 ÷ 5 ml/l.


Elektroliz $45 \div 60$ °S temperaturada olib boriladi, $i_k - 3 \div 5$ A/dm². Anod –temir.
Elektrolit rN 4,5 ÷ 5,5.

Temir elektr biriktirish yuqori katodli va anodli polyarizatsiyada boradi. Tuzli elektrolitlardan temirni biriktirishda katodda vodorod ajralib chiqadi.

8.6.Quritish.

Detallarni so'nggi yuvishdan keyin olib boriladi. Bunda issiq havo yordamida quritiladi. (t – 60 – 70°S). Quritish shkafida olib boriladi.

Гальваник қоплаш технологик схемаси



Галваник қоплашнинг технологик картаси

№ p/p	Operatsiya	Eritmaning tarkibi, g/l.		Харорат, °S.	Tok zichligi, A/dm ² .	Жараён davomiyligi, min.
1	Механик ишлов berish.	N = 1 yoki N = 2 lik qum qog'oz N = 4/0 yoki N = 5/0 qum qog'oz N = 1/0 N = 1 yoki N = 2/0 qum qog'oz				
2	Электр кимёвий yog'sizlantirish	NaOH	20	60 – 70	2 – 10	10
		Na ₃ PO ₄	30			
		Na ₂ SiO ₃	30			
		Sintanol DS-10	2			
3	Issiq yuvish 1- bosqich.	H ₂ O		50 – 60	-	0,5
4	Sovuq yuvish 2- bosqich.	H ₂ O		20	-	0,5
5	Faollashtirish	H ₂ SO ₄	250	45 – 80	-	2
6	Sovuq yuvish	H ₂ O		20	-	0,5
9	Issiq yuvish	H ₂ O		50 – 60	-	0,5
10	Металл biriktirish	FeSO ₄ * 7H ₂ O	350	50	3	15
		NaCl	15			
		H ₃ BO ₃	40			
		1,4- butindiol	1,5			
		Formaldegid	0,05			
		Xloramin-B	2,5			
		OS-20	5			
11	Sovuq yuvish	H ₂ O		20	-	0,5
12	Issiq yuvish	H ₂ O		50 – 60	-	0,5
13	Quritish	Havo		60 – 70	-	5

2.3 DETALLARNI GALVANIK QOPLASH USULIDA TIKLASHDA ISHLATILADIGAN JIXOZLAR TURLARI VA TAVSIFI

Elektrokimyoviy jarayon o'tkaziladigan vanna apparat yoki qurilmaga elektrolizyor diyiladi. Barcha mavjud elektrolizyorlar 4 guruhga bo'linadi:

1. Elektrokimyoviy reaktorlar - tovar holidagi mahsulotlar: gazlar (vodorod, xlor, ftor), metallar (mis, nikel, ruh, alyuminiy, magniy va boshqalar) olinishlari, noorganik va organik mahsulotlar elektrosintezi.

2. Elektrokimyoviy (galvanik) vannalar - metal va nometall buyumlar sirtida elektrokimyoviy qo'lamalar yaratish.

3. Elektrokimyoviy priborlar (xemotronli priborlar yoki xemotronlar) - turli ko'rinishlardagi axborotlarni elektrokimyoviy o'zgartiruvchilar guruhi. Eski va sodda pribor bu kulonometr, zomonaviy elektrokimyoviy priborlar esa diodlar, integratorlar bosim, tezlik va vibratsiya datchiklari va boshqalar.

4. Elektrokimyoviy stanoklar - metal buyum detallarga razmerli ishlovi o'tkaziladigan agregatlar kom'lekslari - elektrttashuvchi, elektrofrezlovchi va figurali katodlar qo'llash orqali anodni tanlab eritishga asoslangan boshqa o'erasiyalar.

Elektrolizyorlar tarkibidagi elektrodning ulanishiga qarab bir qutbli va ikki qutbli bo'ladi. Amalda ko'roq bir qutbli elektrodlar ishlatiladi. Sanoatda elektrolizyorlarda tuzilishiga ko'ra turli elektrolitlar qo'llaniladi: silendrsimon, to'rsimon, perforatsiyalangan simli, sterjensimon, sharikli, boplaklangan, to'qilgan va boshqalar.

Elektrodning joylashishiga qarab uch turga bo'linadi: butun, boplaklangan va to'qilgan.

Sanoatda oz bo'lsa ham suyuq elektrotli elektrolizyorlar ham ishlatiladi, masalan simob katodli diafragmasiz xlor elektrolizyorlari.

- qizdirib suyuqlantirilgan alyuminiy katodli yuza alyuminiy oladigan elektrolit vanna.

Amaliy elektrokimyoda odatda qo'zalmaydigan elektrodli vannalar faqat ba'zida jarayonni takomillashtirish imkoniyati mavjud bo'lgan hollarda xarakatdagi elektrodli vannalar qo'llaniladi. Bunday elektrolizyorlarga misol bo'lib, barabanli vannalar va qo'niroqsimon vannalar xizmat qiladi.

Sanoatda qo'llaniladigan asosiy elektrokimyoviy (galvanik) vannalar turkumlanishi:

Qo'ng'iroqsimon vannalar (rasmga qarang) ebonit, vini'last yoki gumma bilan qo'langan 'o'latlardan kesilgan konus shaklida tayyorlanib, ularda jarayon tinmay aylantirib turgan xolda, asosan mayda buyumlarni metallashda ishlatiladi. Bu vannalar tishli g'ildirak va chervyakli reduktor yordamida yuqoriga (ishchi holati) va pastga qaragan (detallarni va elektrolitni to'kish uchun) holatlariga o'zgartiriladi. Buyumlarga tok vanna tubidagi mis xalqa orqali beriladi. Anod esa yuzasi bilan buyumlarga qaragan xolatda yuqoridan elektrolit ichiga tushiriladi.


Qo'ng'iroqsimon vannaning afzalliklari:

- metal qo'lash jarayonini kuzatishning mumkin ekanligi;
- o'ta mayda buyumlarga ishlov berishning mavjudligi;
- buyumlarni solish va chiqarishning osonligi,
- avtonom qurilma bo'lib, joy tanlamasligi.

Kamchiliklari:

- bir qism elektrolitning to'kilib yo'qotilishi;
- anod yuzasining kichikligi tufayli tok zichligi 'ast bo'lib, metallash vaqtining uzoq ekanligi;
- qo'lamaning qisman qirilib yo'qotilishi;
- qalin qo'lamalar olib bo'linmasligi.

Stasionar vannalarga tushiriladigan qo'ng'iroqsimon setkali qurilma (yuqoridan o'ng tomondagi rasimga qarang)larda elektrolitning to'kilib yo'qotilishi bo'lmaydi va tok zichligini talab darajasiga ko'tarish va shu orqali hoxlagan qalinlikdagi qo'lamalar olish imkoniyati 'aydo bo'ladi.




-rasm. Qo'ng'iroqsimon vanna.

'astdagi rasmda avtoo'erotorda ko'tarib yuruvchi baraban chizmasi keltirilgan. Ular organik shisha, vini'last kabi materiallardan 'erforastiya qilib tayyorlanib, mayda buyumlarga tok beruvchi va barabanni aylantiruvchi mexanizm bilan jihozlangan bo'ladi. Barabanlar 100-280 mm diametrغا, 160-500 mm uzunlikka va 50 kg gacha bo'lgan vaznga ega bo'ladilar.

Barabanlarning afzalliklari:

- metal qo'lash tezligining yuqoriligi;
 - elektrolit tarkibining doimiyliigi va yo'qotishning ozligi;
 - bir vaqtda turli buyumlarni bir biriga aralashtirmay metallash imkonining mavjudligi.
- Barabanlarning kamchiligiga ularning uzoq vaqt ishlay olmaslikla-rini keltirish mumkin.



-rasm. Barabanli elektrolizyorning tarkibiy qismlari.

Barabanli elektrolizyor svarka qilib yig'ilgan rama 5 va stapfa 2, avtooperatorga ilinuvchi ilgak 6 iborat bo'ladi. Ramaga, yuk ko'taruvchi tirsak 11 larga ftoro'last podshipnik 12 lar orqali o'rnatilgan xamma tomonlari perforasiya qilib ishlangan baraban 13, va uning qopqog'i 14, dvigatel 4, katod tok keltiruvchisi 1, dvigatelni himoyalovchi avtomat 7, elektrodvigatelga o'zgaruvchan 36 V li tok keltiruvchi kontakt qurilmasi 8, himoyalovchi qo'qoq 3 lardan iborat qurilma osiladi.


Elektrolizyorlarning tarkibiy qismlari.

1. Elektrolizyor korpusi (vanna).
2. Elektrodlar (katod va anod).
3. Tok etkazish qismlari.
4. Elektrolitni aralashtirish va aylantirish qurilmalari.
5. Elektrolitni isitish va sovutish qurilmalari.
6. Gazsimon maxsulotlarni yig'ib chiqarish qurilmalari.
7. Diafragma va membranalar (to'siqlar).

1. **Elektrolizyorlar korpslari** (elektrolitik vannalar) betondan, po'latdan va plastiklardan tayyorlanadi. Ko'proq po'latning St.3 yoki St.30 legirlanmagan turidan tayyorlanib, korroziyani oldini olish maqsadida, vanna ichki tomonidan plastiklar yoki boshqa elektrolitga chidamli material bilan qo'lanadi (futerovka qilinadi).

Odatda qo'lovchi material bo'lib, vini'last, ftoro'last, 'oli'ro'ilen, 'olietilen, 'erxlorvinil smolasidan olingan rezina yoki ebonit, asbovinil (vinil laki bilan asbest kukuni arlashmasi), qo'rg'oshinlar hizmat qiladi. Xlor va ishqor oluvchi elektrolizyorning kor'usi katodli (qutblanish) himoya qilinganligi uchun vannaning ichki devorlari qo'lama qilinmaydi, lekin tashqaridan termohimoya qilinadi. Koppina xollarda korpus gummalanadi yoki xlorvinil smolasi bilan qo'lanadi.

Sanoatda ba'zi hollarda diafragmasiz va zarur bo'lganda diafragmali elektrolizyorlar qo'llaniladi. Diafragma elektrodlarda hosil bo'lgan mahsulotlarni eritmada o'zaro ta'sirlashib, reaksiyani orqaga qaytarilish hollarini oldini olish yoki filtrlash ushun ikkala elektrod oraliiga o'rnatiladi.



2.3.3-rasm. Galvanik vanna metallarni elektrokimyoviy qo'lama qo'lash uchun:

1 – kor'us; 2 –shamollatish g'ilofi; 3 – qizdirish uchun isitgich; 4 – himoya qavati; 5 – anod shtangasi; 6 – katod shtangasi; 7 – sovuq havo aralashtirish uchun barboter.

Metall buyumlarni elektrokimyoviy usulda qo'li'lash uchun asosan qo'ngiroqli, barabanli, ilgichli vannalardan foydilaniladi. Mayda buyumlarni ruhlash uchun barabanli elektroliz vannasi tanlanildi. Mayda detalni qo'lash kerakligi uchun maqsadga muvofiq ular barabanda ishlov beriladi. Quyidagi xarakterlarga ega baraban tanlaymiz:

1. Maksimal siimi - 25 kg;
2. Aylanish chastotasi – 10 ayl/min;
3. Ichki diametri – 320 mm;
4. Uzunligi – 500 mm;

5. Gabarit o'lchamlari – 1310*430*1040 mm;
6. Vazni – 105 kg.

Avtoo'eratorli liniyaning bosh ijrochi mexanizmi – bu avtoo'eratordir. Xozirgi vaqitda uch turdagi: osma, yon, konsol avtoo'eratorlar keng tarqalgan. Ushbu kurs ishida 'ortal turdagi avtoo'erator ishlatiladi, chunki uni tayyorlash sodda va yetarli darajada yuk ko'tarish qobiliyatiga ega. Tanlangan avtoo'eratorning xarakteristikasi quyidagicha:

1. Yuk ko'taruvchanligi – 200 kg;
2. Ko'tarish balandligi – 1300 mm;
3. Xarakatlanish tezligi – 0.2 m/s;
4. Ko'tarish – tushirish tezligi – 0.11 m/s
5. Gabarit o'lchamlari 1700*1860*2100 mm
6. Vazni – 390-440 kg.

Ruhlash jarayoni barabanga bir martada 2 m² (20 kg) yuklanuvchi va ishlab chiqaruvchanligi 27 m²/soat bo'lgan avtomatik galvanika tizimida amalga oshiriladi. Quydagi avtomatik galvanika tizimida quydagicha gabarit o'chamlarga ega vannalar ishlatiladi:

1. Elektrokimyoviy vannalar – 800*900*800 mm;
2. Kimyoviy vannalar – 600*900*800 mm.

2.4 ISHLAB CHIQARISH NAZORATI

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini avvalo ishlatilayotgan xom ashyolar, uskunalarning talab darajasida ishlashi va ularni nazoratiga bog'liq. Qoplamaning sifati ko'p hollarda asos metall sifatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun qoplamalarni sifatini nazorat qilayotganda asos metall va qoplama sifatiga alohida e'tibor beriladi.

Asos metallni, ya'ni ximoyalanayotgan metalni nazorati qoplashdan oldin uning yuzasini g'adir-budirligi, nuqsonlardan holi bo'lishi, turli ko'rinishdagi qo'shimchalardan, qatlamlardan, yoriqlardan xoliligi tekshiriladi.

Avtomatlashtirilgan tizimlarda qoplamani qoplashdan oldin bir smenada bir marta quyidagi parametrlar bo'yicha nazorat qilinadi:

- Qoplamaning tashqi ko'rinishi;
- Qoplama qalinligi;
- Asos bilan qoplamaning birikishi;
- Qoplama g'ovakliligi;
- Qoplama qattiqligi.

Nazorat usullari buyum va qoplamaga zarar keltirmasligi kerak. Ishlab chiqarishda bunday nazorat bir xil turdagi buyumlar uchun 100% lik nazoratni talab etganda va murakkab tuzilishga va shaklga, yuqori bahoga ega bo'lgan buyumlar uchun qo'llaniladi.

Buyum va qoplamaga zarar keltirmaydigan bunday usullarga, magnitli, elektromagnitli, radatsion, optik va gravimetrik usullar kiradi.

Loyihada quyidagicha nazorat qilish ko'zda tutilgan;

-detallarni vizual nazorat qilish, qalinligini magnit usulida aniqlash, birkish mustaxkamligini aniqlash uchun tirnash setkalarini qoplash usulidan foydalanish.

Magnit usuli sinalayotgan detal yuzasidan magnitni ajratib olish uchun ketgan kuch orqali aniqlashga asoslangan. Bunday asboblarda doimiy magnitli va elektromagnitli turlarga bo'linadi. Bunda kuch prujinali dinamometrlar orqali o'lchanadi. Bunday usulni qo'llayotganda qoplanayotgan detallar temir magnitli xossalarga ega bo'lishi kerak.

Setkali tirnash usuli sinalayotgan detal yuzasiga o'tkir po'lat uch bilan metall asosgacha 2-3 mm oraliqda 4-6 ta parallel va perpendikulyar chiziqlar chiziladi. Chiziqlar bir xil yo'nalishda chizilishi kerak. Tekshirilayotgan yuzalarda ko'chgan joylar bo'lmashligi kerak.

Qoplamalar qattiqligini o'lchashning eng aniq usuli bu olmosdan qilingan piramidani qoplama yuzasiga kichik kuch bilan botirish orqali aniqlash hisoblanadi. (2 dan 200 g gacha). Bunda o'lchashlar asboblarda mikrotvyordomer PMT-2 yoki PMT-3 orqali amalga oshiriladi. Bu asbobda o'lchanayotganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- belgilangan qiymatgacha kuchlanishni birtekis oshirib borish;
- berilgan kuchlanishni belgilangan vaqt ichidagi doimiylikini saqlash;
- Yo'l qo'yiladigan xatoliklar 10g dan kam bo'lmagan yuk uchun $\pm 0,1$ g dan oshmasligi kerak.

Qoplamalarni g'ovakliligi yog' xajmiy og'irligi usuli orqali aniqlanadi. Usulning mazmuni 1 dm^2 qoplama yuzasiga yutilgan yog'ning massasini topishdan iborat. Bunda oldindan o'lchab olingan namuna 1-1,15 soat mobaynida 80°S temperaturada yog'ga botirib qo'yiladi va olingandan keyin ortiqcha yog' artib olinib yana o'lchanadi. Shu tariqa ularni farqi topiladi.

ТЕХНОЛОГИК ҚИСМ

3.1 Kimyoviy birikmalar va elektrodlar hisobi

Yemirilgan po'lat detalarda yuzasini металл bilan qoplashda yuvish uchun suv sarfi quyidagi formula orqali hisoblanadi (GOST 9.305-84 bo'yicha):

$$Q_N^P = q \cdot F \cdot N \cdot \sqrt{k_0}$$

Bu yerda: q – elektrolitning (eritmaning) barabandagi detallar sirti orqali nisbiy chiqib ketishi ($q=0.4 \text{ dm}^3/\text{m}^2$);

N – yuvish bosqichlari soni;

k_0 – detallarni obdon yuvish kriteriysi;

F – detallarning yuvilish yuzasi ($F=16.2 \text{ m}^2/\text{soat}$).

$$k_0 = C_0 / C_p$$

bu yerda: C_0 – asosiy moddaning eritmadagi yuvishdan oldingi konsentratsiyasi, gr/l;

C_p – asosiy moddaning eritmadagi yuvishdan keyingi konsentratsiyasi, gr/l.

$$C_0 = 56,25 \text{ g/l}; C_p = 0,8 \text{ g/l}; q = 0,4 \text{ dm}^3 / \text{m}^2; F = 16,2 \text{ m}^2 / \text{soat}; N = 12$$

$$k_0 = 56,25 / 0,8 = 59,8;$$

$$Q_N^P = 0,4 \cdot 16,2 \cdot 2 \cdot \sqrt{59,8} = 88,5 \frac{\text{l}}{\text{soat}}.$$

-Жадвал

Texnologik jarayon davomida yuvish uchun ketgan suv miqdori.

Jarayondan oldin yuvish	C_p , g/l	C_0 , g/l	K_0	$Q_{y\text{d}}$, l/m ²	Q, l/soat
Elektrokimyovi y Yog'sizlantirish	46,25	0,1	462,5	8,6	278,7
Aktivlashtirish	100,7	0,05	2014	17,9	289,9
Temir bilan qoplash	13,5	0,01	1350	14,7	238,1
Faolsizlantirish	72,5	0,01	7250	23,8	386,2
Jami				65	1192.9

Reagent va anod sarfining hisobi

Boshlanich ishchi eritmani tayyorlashga sarflanadiga modda miqdorini hisoblash uchun quydagi formuladan foydalanish mumkin:

$$m_i = C_i \cdot V_i \cdot n_v \cdot n_{sm}$$

bu yerda: m_i – eritmaning xar-bir tarkibiy qismining massasi, kg;

C_i – xar-bir tarkibiy qismining eritmadagi konsentratsiyasi, gr/l;

V_i – vanna hajmi;

n_v – vannalar soni;

n_{sm} – vannalarning yillik almashinuvchanligi.

Elektrokimyoviy yogsizlantirish:

$$m_{NaOH} = 18 \cdot 0,432 \cdot 1 \cdot 12 = 93,312 \text{ kg};$$

$$m_{Na_3PO_4} = 18 \cdot 0,432 \cdot 1 \cdot 12 = 93,312 \text{ kg};$$

$$m_{Na_2CO_3} = 18 \cdot 0,432 \cdot 1 \cdot 12 = 93,312 \text{ kg};$$

Aktivlashtirish:

$$m_{HCl} = 215 \cdot 0,632 \cdot 1 \cdot 1 = 135,88 \text{ kg};$$

Temir bilan qoplash

$$m_{FeSO_4 \cdot 7H_2O} = 350 \cdot 3,6 \cdot 1 \cdot 1 = 1260 \text{ kg};$$

$$m_{K_2SO_4} = 150 \cdot 3,6 \cdot 1 \cdot 1 = 540 \text{ kg};$$

Faolsizlantirish oq ranga:

$$m_{H_2SO_4} = 0,35 \cdot 0,6 \cdot 1 \cdot 175 = 36,75 \text{ kg};$$

Kislotada yuvish:

$$m_{HNO_3} = 0,15 \cdot 0,6 \cdot 1 \cdot 175 = 15,75 \text{ kg};$$

Eritmani meyorlashtirishga sarf bo'lgan kimyoviy moddalar

Vannalar nomi	Eritma tarkibi	Konsentratsiyasi g/l	Massa kg
Mexanik ishlov berish	Qumqog'oz bilan tozalash /turlari. N = 1 yoki N = 2 lik qum qog'oz N = 1/0 N = 1 yoki N = 2/0 qum qog'oz N = 4/0 yoki N = 5/0 qum qog'oz		
Elektrokimyoviy yogsizlantirish	NaOH Na ₃ PO ₄ Na ₂ CO ₃	15 15 15	376,22 376,22 376,22
Aktivlashtirish	H ₂ SO ₄	250	132,62
Temir bilan qoplash	FeSO ₄ +7H ₂ O K ₂ SO ₄	350 150	8496,6 3796,9
Faolsizlantirish oq ranga	CrO ₃	0.35	13,6
Kislotada yuvish	HNO ₃	0,15	13,4

Meyorlashtirish uchun qo'shiladigan moddalar miqdori quydagi formuladan topiladi (yillik sarf):

$$m_i^{\text{mey}} = [(q_y + q_v + q_f) \cdot C_i + q_{\text{par}}] \cdot S_{\text{yil}}$$

bu yerda: q_y – baraban va detallar orqali eritmaning yo'qotilishi ($q_y=0.4 \text{ dm}^3/\text{m}^2$);

q_v – eritmaning shamollatish tizimi orqali yo'qotilishi ($q_v=0.015 \text{ dm}^3/\text{m}^2$);

q_f – eritmaning filtrlashda yo'qotilishi ($q_f=0.065 \text{ dm}^3/\text{m}^2$);

C_i – tarkibiy qisimlar konsentratsiyasi, gr/l;

q_{par} – moddalarning elektr tokida parchalanishi orqali yo'qotilishi (faqat elektrokimyoviy vannalar uchun $q_{\text{par}}=0.25 \text{ dm}^3/\text{m}^2$);

S_{yil} – yillik ishlab chiqarish dasturi, m^2/yil .

Elektrokimyoviy yogsizlantirish:

$$m_{\text{NaOH}}^{\text{mey}} = [(0,4 + 0,015 + 0,065) \cdot 15 + 0,25] \cdot 50,500 = 376,22 \text{ kg};$$

$$m_{\text{Na}_3\text{PO}_4}^{\text{mey}} = [(0,4 + 0,015 + 0,065) \cdot 15 + 0,25] \cdot 50,500 = 376,22 \text{ kg};$$

$$m_{\text{Na}_2\text{CO}_3}^{\text{mey}} = [(0,4 + 0,015 + 0,065) \cdot 15 + 0,25] \cdot 50,500 = 376,22 \text{ kg};$$

Aktivlashtirish:

$$m_{\text{H}_2\text{SO}_4}^{\text{mey}} = [(0,4 + 0,015 + 0,065) \cdot 250 + 0,25] \cdot 50,500 = 132,62 \text{ kg};$$

Temir bilan qoplash :

$$m_{\text{mFeSO}_4+7\text{H}_2\text{O}}^{\text{mey}} = [(0,4 + 0,015 + 0,065) \cdot 350 + 0,25] \cdot 50,500 = 8496,6 \text{ kg};$$

$$m_{\text{KSO}_4}^{\text{mey}} = [(0,4 + 0,015 + 0,065) \cdot 150 + 0,25] \cdot 50,500 = 3796,9 \text{ kg};$$

Faolsizlantirish oq ranga:

$$m_{\text{CrO}_3}^{\text{mey}} = [(0,4 + 0,015 + 0,065) \cdot 0,35 + 0,025] \cdot 50,500 = 13,6 \text{ kg};$$

Kislotada yuvish:

$$m_{\text{HNO}_3}^{\text{mey}} = [(0,4 + 0,015 + 0,065) \cdot 0,15 + 0,25] \cdot 50,500 = 13,4 \text{ kg}.$$

-jadval

Eritmani meyorlashtirishga sarf bo'lgan kimyoviy moddalar.

